

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

**“KREDIT AXBOROTI ALMASHINUVI TO'G'RISIDA”GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI
QABUL QILINGANLIGI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN
HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2012-yil 29-
fevralda qabul qilingan
Senat tomonidan 2012-yil 23-martda
ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi 154-I-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 247-modda; 1998-yil, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 5, 124-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 9, 496-modda; 2007-yil, № 12, 608-modda; 2009-yil, № 4, 133-modda, № 9, 330, 337-moddalar, № 12, 470-modda) quyidagi o'zgartishlar va qo'shimcha kiritilsin:

1) 3-modda ikkinchi qismining **to'rtinchi xatboshisidagi** “va garovxonalar” hamda “va garovxonalarni” degan so'zlar tegishincha “lombardlar va kredit byurolari” hamda “lombardlar va kredit byurolarini” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2) **17-moddaning:**

yettinchi xatboshisi o'zbekcha matnidagi “garovxonalar” degan so'z “lombardlar” degan so'z bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshisidagi “va garovxonalar” degan so'zlar “lombardlar va kredit byurolari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3) VIII bo'limning **nomidagi** “va garovxonalar” degan so'zlar “lombardlar va kredit byurolari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

4) **50-moddaning:**

nomi va **birinchi qismidagi** “va garovxonalar” degan so'zlar “lombardlar va kredit byurolari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “banklar” va “garovxonalar” degan so'zlar tegishincha “banklar, kredit byurolari” va “lombardlar, kredit byurolari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismi “Banklar” degan so'zdan keyin “kredit byurolari” degan so'zlar bilan to'ldirilsin, o'zbekcha matnidagi “garovxonalarga” degan so'z esa “lombardlarga” degan so'z bilan almashtirilsin;

to'rtinchi qismidagi “garovxonalarga” degan so'z “lombardlar, kredit byurolariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

5) **51-modda:**

birinchi qismining **to'rtinchi xatboshisidagi** “garovxonalar” degan so'z “lombardlar va kredit byurolari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismining:

ikkinchi xatboshisidagi “va garovxonalarning” degan so'zlar “lombardlar va kredit byurolarining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshisidagi “garovxonalarning” degan so'z “lombardlar va kredit byurolarining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshisidagi “banklarning” degan so'z “banklar va kredit byurolarining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;